

## AYOLLARDA UCHRAYDIGAN JINSIY KASALLIKLARNING FUNKSIONAL TURIDA YUZAGA KELADIGAN PSIXOLOGIK O'ZGARISHLAR

**Gadayeva Mashhura Shuhrat qizi**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, davolash ishi 3-bosqich talabasi*

**Dursunov Sardor Axmat o'g'li,**

*Ilmiy rahbar: pedagogika, psixologiya va tillar kafedrasida o'qituvchisi, TTA*

**Annotatsiya:** *Bu maqolada ayollarda uchraydigan organik bo'lmagan ginekologik xastaliklar tufayli yuzaga keladigan jinsiy disfunktsiya va xususiyatlar: jinsiy moyillikning kamayishi, jinsiy qo'zg'alishning buzilishi, orgazm buzilishi, jinsiy og'riqning yuzaga kelishi hamda vaginizm va unga bog'liq holda apanuriya, dispanuriya va vulvar vestibulit sindromi (VVS) sindromlarining yuzaga kelishi haqida so'z boradi.*

**Abstract:** *In this article, sexual dysfunction and characteristics caused by non-organic gynecological diseases in women: decreased sexual desire, sexual arousal disorders, orgasm disorders, sexual pain and vaginismus and associated apanuria. , the occurrence of dyspanuria and vulvar vestibulitis syndrome (VVS) syndromes is mentioned.*

**Аннотация:** *В статье рассмотрены сексуальная дисфункция и особенности, обусловленные неорганическими гинекологическими заболеваниями у женщин: снижение полового влечения, расстройства полового возбуждения, расстройства оргазма, сексуальные боли и вагинизм и связанная с ними апанурия, возникновение диспанурии и синдрома вульварного вестибулита (BBC) синдромы упоминаются.*

**Kalit so'zlar:** *jinsiy disfunktsiya, vaginizm, apanuriya, dispanuriya, orgasm, vulvar vestibulit sindromi (VVS)*

**Key words:** *sexual dysfunction, vaginismus, apanuria, dyspanuria, orgasm, vulvar vestibulitis syndrome (VVS)*

**Ключевые слова:** *сексуальная дисфункция, вагинизм, апанурия, диспанурия, оргазм, синдром вульварного вестибулита (BBC).*

Jinsiy munosabat, istak, orgazm yoki og'riq bilan bog'liq doimiy, takrorlanadigan muammolar insonni bezovta qiladigan va uning jufti bilan munosabatlarini buzadigan tibbiyotda jinsiy disfunktsiya deb nomlanadi.

Ko'p ayollar jinsiy funktsiya bilan bog'liq muammolarga duch kelishadi, ba'zilari esa butun hayoti davomida bundan yashirinchasiga ham aziyat chekadilar. Ayol



jinsiy disfunktsiyasi hayotning har qanday bosqichida sodir bo'lishi mumkin. Jinsiy muammolar ko'pincha gormonlar o'zgarganda, masalan, farzandli bo'lgandan keyin yoki menopauza paytida rivojlanadi. Turli kasalliklar, jumladan, saraton, diabet yoki yurak va qon tomirlari kasalliklari, siydik faoliyati tizimi muammolari kabi jiddiy kasalliklar ham jinsiy disfunktsiyaga hissa qo'shishi mumkin.

Ba'zi dorilar, shu jumladan antidepressantlar, giper tonik vositalar, antigistaminlar va kimyoterapiya preparatlari jinsiy istakni va tanadagi qoniqish va his qilish qobiliyatini kamaytirishi mumkin. Menopauzadan keyin estrogen darajasining pasayishi jinsiy a'zolar to'qimalarida o'zgarishlarga va jinsiy sezgirlikka olib kelishi tabiiy. Estrogenning kamayishi tos bo'shlig'iga qon oqimining pasayishiga olib keladi, buning natijasida jinsiy a'zolar va unga bog'liq hissiyotlar kamayadi[1]. Shuningdek, qo'zg'alish va orgazmga erishish uchun ko'proq vaqt kerak bo'ladi. Ruhiy tushkunlik uzoq muddatli stress va boshdan kechirilgan jinsiy zo'ravonliklar jinsiy disfunktsiyani keltirib chiqarishi yoki sabab omili bo'lishi mumkin.

Jinsiy munosabat fiziologiyasi his-tuyg'ular, dunyoqarash, yashash tarzi va munosabatlarning murakkab o'zaro ta'sirini o'z ichiga oladi. Har qanday komponentning buzilishi jinsiy istak, qo'zg'alish yoki qoniqishga ta'sir qilibgina qolmay insonning psixik salomatligiga, turmush o'rtoq bilan aloqador deyarli barcha sohalarga va qolaversa shaxslar orasi muloqot jarayoniga o'zining salbiy ta'sirini ham yetkazishi mumkin.

Jinsiy disfunktsiyonal tashxislar, belgilariga qarab farq qiladi:

❖ Jinsiy moyillikning kamayishi (Aparoni): Ayol jinsiy disfunktsiyalarining eng keng tarqalgani jinsiy qiziqish (libido) va jinsiy aloqaga tayyorlikning yetishmasligini o'z ichiga oladi.

❖ Orgazm buzilishi (Anorgazmiya): Yetarli jinsiy qo'zg'alish va doimiy stimulyatsiyadan keyin orgazmga erishishda doimiy yoki takroriy qiyinchiliklarning yuzaga kelishi. Fiziologik jihatdan ayollarda orgazm klitorisda vaginal va klitoral stimulyatsiyalarni to'plash orqali klitoris va miya o'rtasida bog'liq ravishda paydo bo'ladi. Agar ayol ilgari hech qachon orgazm bo'lmagan bo'lsa, bu birlamchi orgazm buzilishi, agar bu holat keyinroq rivojlansa, ikkilamchi darajali orgazm buzilishi deb ataladi.

❖ Vaginizm - bu tos bo'shlig'i mushaklarining beixtiyoriy qisqarishi natijasida yuzaga keladigan vaginal zo'riqish. og'riq va penetratsiya muammolarini keltirib chiqaradi.

❖ Jinsiy og'riqning yuzaga kelishi (Frigidlik): Jinsiy stimulyatsiya yoki vaginal aloqa bilan bog'liq bo'lib og'riqlarning yuzaga kelishi. Ayollarda orgazm qobiliyati yoshga qarab ortadi.



Jinsiy disfunktsiya xavfini oshirishi mumkin bo'lgan vaziyatli omillar: Depressiya yoki tashvish, yurak va qon tomirlari kasalligi, orqa miya shikastlanishi yoki skleroz kabi nevrologik kasalliklar, ginekologik kasalliklar; vulvovaginal atrofiya, infeksiyalar yoki liken skleroz. Qolaversa somatic kasalliklardan istisnoli vaziyatda bazi dori vositalar: antidepressantlar yoki gipertenziv preparatlar kabi dori dorilar ayol- qizlarda jinsiy hayotga bo'lgan (libido) pasayishi kuzatiladi.

Hissiy yoki psixologik stress, ayniqsa jufti bilan bo'lgan munosabatda jinsiy aloqa vaqtida eng ko'p uchraydigan holatlardan biri bu vaginizmdir. Vaginizm - bu tos bo'shlig'i mushaklarining ixtiyoriy qisqarishi natijasida yuzaga keladigan vaginal zo'riqish bo'lib og'riq va penetratsiya muammolarini keltirib chiqaradi[2]. Boshqacha qilib aytganda vaginizm, -vaginal kirish qo'rquviga beixtiyor va nazoratsiz reaksiya hisoblanadi. Odatda noto'g'ri va nosog'lom jinsiy ma'lumotlarning ong ostiga joylashishi va qin atrofidagi mushaklarning refleksi qisqarishi kabi omillar tufayli yuzaga keladigan vaginizm kasalligida ayolarda, jinsiy aloqani tez yakunlash, hatto jinsiy aloqadan qochish kabi alomatlar paydo bo'ladi. Har bir jinsiy aloqada bo'lgan yoki bo'lmagan ayol vaginizm muammosiga duch kelishi mumkin. Vaginizmning birlamchi va ikkilamchi turlari tafovut etiladi. Birlamchi vaginizmda ayollar doimo jinsiy aloqa vaqtida og'riqni his qiladilar. Bu holat birinchi turdagi jinsiy aloqada yoki birinchi ginekologik tekshiruvda sodir bo'ladi.

Ikkilamchi vaginizm da esa ilgari normal og'riqsiz jinsiy aloqa bo'lgan va vaginizm keyinchalik paydo bo'lgan. Ba'zida travma va jarrohlik muolajalardan so'ng, birlamchi muammolar butunlay yo'qolsa ham, ular jinsiy aloqada bo'lolmaydilar. Vaginizm ba'zan ayollarning ruhiy va psixologik holatiga, ularning qarama-qarshi jinsga bo'lgan qiziqish darajasiga va munosabatlarda o'zlarini qulay his qilishlariga qarab o'zgaradi. Bu holat "situatsion vaginizm" deb ataladi.

Vaginizmning belgilarida qin mushaklarining beixtiyor va takroriy qisqarishi yoki spazmlari paydo bo'ladi, bu jinsiy aloqadan qochish yoki jinsiy aloqa paytida oyoqlarini yopish va chekinishni o'z ichiga oladi.

Aparoni (Apreuniya) Ba'zi omillar ta'sirida ayloning jinsiy aloqa qila olmasligi aparoniya deb ataladi. Bu holat erkaklar, ayollar yoki juftliklar o'rtasidagi ba'zi sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin.

Disparuniya (disparuniya) Jinsiy aloqada og'riq, qichishish va yonish kabi odamga noqulaylik tug'diradigan shikoyatlar disparuniya deb ataladi. Bu holat og'riqli jinsiy aloqa sifatida e'tirof etiladi.

Vulvar vestibulit sindromi (VVS) - Vulvar vestibulit sindromi qizlik pardasi atrofida paydo bo'ladigan va sababi aniq bo'lmagan yallig'lanish tufayli yuzaga



keladi. Jinsiy aloqa paytida og'riq va azoblanish kabi shikoyatlar bilan yuzaga keladi.

Vaginizm davolash mumkin bo'lgan muammo bo'lganligi sababli, kasallikni davolash ginekologlar, akusherlar va psixologlar tomonidan bigalikda amalga oshiriladi[3,5,7].

Vaginizmni davolash uchun qo'llanilishi kerak bo'lgan ba'zi mashqlar mavjud bo'lib bu kechinmalarda ginekolog, klinik psixolog va seksologlar tomonidan o'rganiladi va davolash ishlari yuritiladi. Tegishli davolanishni rejalashtirish uchun og'riqli jinsiy aloqani keltirib chiqaradigan boshqa tibbiy va jismoniy holatlarni istisno qilish kerak. Og'riqli jinsiy aloqani keltirib chiqaradigan ba'zi holatlarni quyidagicha sanab o'tish mumkin: vulvodiniya/ vestibulodiniya, tos a'zolarining yallig'lanish kasalliklari (PID), tuxumdon kistasi, siydik pufagi yoki siydik yo'llarining infeksiyalari, vaginal atrofiya, vaginal quruqlik, vaginal prolapsa, qattiq yoki qalin qizlik pardasi, tug'ilish travmasi, vulva saratoni, vaginal infeksiyalar, teri kasalliklari (Lichen skleroz, ekzema, psoriasis), bo'g'imlarga ta'sir qiluvchi va bo'g'imlarning harakatini cheklaydigan revmatik kasalliklar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ayollarda psixologik tomondan jinsiy hayotda muammolarni yuzaga kelishiga ba'zi kasalliklar, kasalliklar, jinsiy ta'limning etishmasligi, jinsiy aloqa haqida konservativ va destruktiv fikrlar va qadriyatlar, turli xil jinsiy afsonalarning tarqalishi, jinsiy bilimga ega bo'lmasdan aloqaga munosabat bildirish, o'z juftiga nisbatan qo'rquv va stressda bo'lish hamda faqat bir tomonlama jinsiy qoniqishning takrorlanib turishi sabab bo'ladi.

## ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Sexually Transmitted Diseases: A Physician Tells You What You Need to Know (A Johns Hopkins Press Health Book) Paperback – September 4, 2007  
by Lisa Marr MD (Author)
2. Ibodullayev Z.R. Tibbiyot psixologiyasi. Darslik., 2-nashri. 2009. –T.: 393 b.
3. Джеймс Л.Джекобсон., Алан М.Джекобсон. Секреты психиатрии. Пер. с англ.; Под общ. ред. акад. П.И.Сидорова. –М.: 2007. 2-е изд. 576 с.

### Internet manbalari:

<https://www.dryesimycok.com/agrili-cinsel-iliski-vajinismus-mudur/>

<https://my.clevelandclinic.org/health/diseases/15723-vaginismus>

<https://medall.uz/vaginizm-nima-sabablari-belgilari-va-davolash-usullari/>

